Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil marketing strategiyasining raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. An'anaviy marketing yondashuvlari bilan solishtirilganda, ekologik barqaror mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarga bozor ustunligini ta'minlashi aniqlangan. Tadqiqot metodikasi sifatida 200 nafar iste'molchiga o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan foydalanilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yashil marketing kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib, ekologik brending, innovatsion dizayn va barqaror ta'minot zanjiri kabi elementlar bunda asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqot va so'rovnoma natijalariga ko'ra, iste'molchilar korxonaning ekologik mas'uliyatini ijobiy baholaydi va bu omil ularning xarid qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yashil marketing, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, barqarorlik, iste'molchi xulqi, ekologik qadoqlash, ekologik boshqaruv, yashil reklama.

Abstract. This article examines the role and importance of green marketing strategies in the production of competitive products. Compared to traditional marketing approaches, the production of environmentally sustainable goods provides companies with market advantages. The research methodology is based on a survey of 200 consumers. A review of the literature indicates that green marketing strategies enhance a company's competitiveness, particularly through ecological branding, innovative design, and a sustainable supply chain. Survey results show that consumers have a positive attitude toward a brand's environmental responsibility, which significantly influences their purchasing decisions.

Key words: green marketing, competitiveness, marketing strategy, sustainability, consumer behavior, ecological packaging, ecological management, green advertising.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение стратегии зелёного маркетинга в производстве конкурентоспособной продукции. В сравнении с традиционными маркетинговыми подходами установлено, что выпуск экологически устойчивой продукции обеспечивает предприятию рыночные преимущества. В качестве методики исследования использованы результаты анкетирования 200 потребителей. Анализ литературы показывает, что стратегии зелёного маркетинга способствуют повышению конкурентоспособности компании, особенно за счёт экологического брендинга, инновационного дизайна и устойчивой цепочки поставок. Согласно результатам опроса, потребители положительно оценивают экологическую ответственность бренда, что существенно влияет на их решения о покупке.

Ключевые слова: Зеленый маркетинг, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия, устойчивое развитие, поведение потребителей, экологичная упаковка, экологический менеджмент, экологичная реклама.



KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish tamoyillari katta ahamiyat kasb qilmoqda. Global darajadagi ekologik muammolar: havo ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, resurslar cheklanganligi, chiqindi hajmining oshishi — biznes egalari va iste'molchilarning dunyoqarashini, xarid qilish madaniyatini tubdan o'zgartirmoqda. Iste'molchilarning ekologik ongining oshishi va atrof-muhitga ehtiyotkor yondashuv talabining kuchayishi korxonalarda yashil strategiyalarga, xususan yashil marketingga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Masalan, yiliga dunyo okeanlariga 8 million tonnagacha plastik chiqindi to'kilmoqda, bundan tashqari xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, bir kishi yiliga o'rtacha 740 kg maishiy chiqindi chiqaradi. Hozirgi kunda global muammolardan biri bu — chiqindilar hajmini kamaytirish va ishlab chiqarishda yashil tovar strategiyalaridan foydalanishdir.

Bunday muhitda kompaniyalar nafaqat narx, sifat va brend elementlari bilan, balki mahsulot va marketing strategiyalarida "yashil" imkoniyatlarga tayangan holda ham raqobatga kirishmoqda. Masalan, "yashil marketing" tushunchasi mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, marketing miksining barcha elementlariga chuqur kirib bormoqda. Yashil marketing nafaqat brend imijini yaxshilaydi, balki mahsulot tanlovi, narx siyosati va ta'minot zanjirida raqobat ustunligi yaratishi mumkin.

Tovar strategiyasi — kompaniyaning mahsulot portfelini shakllantirish, mahsulot sifatini, ishlanmasini va taqdimotini boshqarishning strategik vositasi bo'lib, uni yashil nuqtai nazardan optimallashtirish raqobatda ustunlik beradi.

Yashil strategiya (Green strategy) — marketingda korxonaning o'z mahsulotlari, xizmatlari va biznes jarayonlarini ekologik jihatdan mas'uliyatli, resursni tejovchi, atrof-muhitga minimal zarar yetkazuvchi tarzda rejalashtirish va boshqarish strategiyasidir. "Yashil marketing — biznes yoki tashkilotning qayta ishlanadigan va oson parchalanadigan qadoqlash, ifloslanishning oldini olishning yaxshiroq usullari va energiyadan samaraliroq foydalanish orqali xavfsiz, ekologik toza tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqishga bo'lgan majburiyati sifatida qabul qilinadi" [1]. Oddiy qilib aytganda, yashil strategiya — bu korxonaning ekologik tamoyillarga asoslangan marketing strategiyasi.

Marketingda yashil strategiya — korxonaning quyidagi maqsadlarni ko'zlagan uzoq muddatli reja va amaliyotlar majmui:

1. Ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish; zararli moddalarni kamaytirish, tabiiy xomashyoni tejash, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish.
2. Yashil mahsulotlarni bozorda to'g'ri pozitsiyalash; mahsulotning ekologik afzalliklarini iste'molchiga aniq yetkazish, "eko", "bio", "organic" brendlash.
3. Yashil kommunikatsiya; ekologik imijni yaratish, yashil reklama, yashil PR, ekologik kampaniyalar.
4. Yashil narx belgilash; energiya tejalganidan keladigan xarajatlarni iste'molchi qiymati bilan uyg'unlashtirish, ekologik qo'shimcha qiymat asosida yuqoriroq narx belgilash.
5. Yashil distributsiya va logistika; chiqindisiz yetkazib berish, ekologik qadoqlash, transportda CO₂ emissiyasini kamaytirish.
6. Mahsulotning butun hayotiy siklida ekologik yondashuv; dizayn → ishlab chiqarish → qadoqlash → tarqatish → foydalanish → utilizatsiya jarayonlarining barchasi ekologik mezonlar asosida rejalashtiriladi.

Yashil strategiyalar asosida yaratilgan yashil brendlar bozor ulushini oshirish va iste'molchi sodiqligini mustahkamlashini Chen Yu Shen ilmiy isbotlagan. Uning fikriga ko'ra, yashil strategiyalar — ya'ni tabiat muhofazasini o'ylagan holda amalga oshirilgan kompaniya sa'y-harakatlari — iste'molchi va mijozlar sodiqligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Shuningdek, biznes egalari bozordagi raqobatchilariga nisbatan yaxshiroq mavqega erishish uchun yashil marketing strategiyalarini qo'llamoqdalar. Xususan, raqamli va resurs tejovchi yechimlar, qayta ishlanadigan materiallar va ekologik brending tovar strategiyasining muhim elementlariga aylanmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — yashil marketing strategiyasining raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdagi rolini o'rganish va iste'molchilarning ekologik jihatdan barqaror mahsulotlarga bo'lgan munosabatini tahlil qilishdir.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Yashil marketing va mahsulot strategiyasining nazariy asoslarini ko'rib chiqish;
- Iste'molchilarning ekologik brendga bo'lgan ishonchi va xarid xatti-harakatlari orqali raqobat omillarini aniqlash;
- Yashil strategiyalarni joriy qilish bo'yicha korxonalarga amaliy tavsiyalar berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil marketing so'nggi yillarda nafaqat alohida strategik yo'nalish, balki korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Turli mualliflar yashil marketingning afzalliklari va



strategik ahamiyatini o'z tadqiqotlarida chuqur yoritib berganlar. Shiddatli va raqobatbardosh global bozorda faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes (KO'B) subyektlari uchun yashil reklama strategiyalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yashil reklama – bu sotuvchilarning o'z mahsulotlarini iste'molchilar ongida ekologik toza, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan mahsulot sifatida pozitsiyalashga qaratilgan kommunikatsiya usuli hisoblanadi [2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil reklama iste'molchilarning reklama haqidagi umumiy munosabatiga hamda ularning ekologik jihatdan mas'uliyatli xatti-harakat qilish niyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [3]. Ko'pgina olimlar yashil reklamani marketing jarayonidagi ahamiyatini tan olgan bo'lsalar-da, uning samaradorligini ta'minlaydigan kommunikatsiya strategiyalari haqida hali ham aniq va yagona nazariy yondashuv mavjud emas.

Shu bois, yashil reklama boshqa marketing strategiyalari bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilganda ijtimoiy maqsadlarga erishishda samaraliroq bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bu esa shuni anglatadiki, yashil reklama muhim bo'lsa-da, u ekologik marketingning barcha muammolarini mustaqil ravishda hal qila olmaydi [4]. Shu munosabat bilan ushbu tadqiqot yashil reklama bilan bir qatorda yashil qadoqlashni ham raqobat ustunligi va biznes samaradorligining qo'shimcha omili sifatida ko'rib chiqadi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, yashil reklama KO'B subyektlari uchun bozorda o'zini ekologik mas'uliyatli brend sifatida namoyon qilishda muhim strategik vosita hisoblanadi. Biroq ekologik talablarning samaradorligi hali ham mustahkam nazariy asosga ega emasligi sababli, yashil reklama boshqa ekologik marketing elementlari, xususan yashil qadoqlash bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanganda yanada katta natija beradi.

Kichik va o'rta bizneslarda yashil strategiya (green creativity, green IT) qo'llanilishi korxonaning barqaror ishlashi va raqobat ustunligini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Bizning iqtisodiyotda KO'B sektori asosiy segment bo'lgani uchun yashil IT va yashil kreativlik ularga tez o'sish imkonini beradi. Shu bois, korxonalar raqobat ustunligini shakllantirishda kompleks yondashuvni — reklama, qadoqlash, innovatsiyalar va iste'molchi ongini birgalikda boshqarishni qo'llashlari zarur.

Biznes sektori yashil qadoqlashni zamonaviy bozor sharoitida kompaniyaning raqobatbardosh strategiyalaridan biri sifatida ko'rib chiqishi lozim [5]. Yashil qadoqlash nafaqat ekologik jihatdan barqarorlikni ta'minlaydi, balki iste'molchilarning ekologik mas'uliyatga asoslangan talablariga mos kelish orqali korxonaning bozor mavqeini mustahkamlaydi. Yashil qadoqlash — atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan, qayta ishlaniishi yoki qayta foydalanilishi mumkin bo'lgan materiallardan foydalanilgan, hamda energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash yordamida yaratilgan qadoqlashdir.

Shuningdek, van den Elzen yashil qadoqlashni korxonaning umumiy ekologik strategiyasining muhim elementi sifatida ko'rib, uning mahsulotning ekologik izini kamaytirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, yashil qadoqlash nafaqat mahsulotning tashqi ko'rinishini, balki ishlab chiqarish, distributsiya va utilizatsiya jarayonlarining ekologik samaradorligini oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuvdir.

Umuman olganda, yashil qadoqlash kompaniyalar uchun ekologik barqarorlik va raqobatbardoshlikni birlashtiruvchi strategik vosita sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, ekologik xavfsiz materiallardan foydalanish, energiya tejankor ishlab chiqarish jarayonlari va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish korxonalarga ekologik mas'uliyatni kuchaytirish bilan birga, bozorda differensiallashish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatini yaratadi.

Shuning uchun yashil qadoqlash zamonaviy kompaniyalarning ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zailani, Shaharudin, Govindasamy, Ismoil va Mahdzor tadqiqotlarida keltirilishicha, yashil qadoqlash korxonaning turli darajadagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning fikriga ko'ra, ekologik tamoyillarga mos qadoqlash kompaniya uchun operatsion jarayonlarni samarali tashkil etishga, iqtisodiy jihatdan tejankorlikka erishishga hamda ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [6].

Maziriri esa yashil qadoqlashni barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, ekologik qadoqlash materiallar iste'molini kamaytirish, chiqindilarni minimallashtirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali korxonaning umumiy natijadorligiga hissa qo'shadi. Maziririning fikricha, bu jarayon korxonaga "uch karrali natija" — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikka erishish imkonini beradi [7].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yashil qadoqlash nafaqat marketing funksiyasi, balki korxonaning strategik boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Yashil qadoqlash va yashil reklama iste'molchilarning ekologik qadriyatlari bilan moslashganda, korxona marketing raqobat ustunligini qo'lga kiritadi. Yashil qadoqlash O'zbekiston bozorida hali keng qo'llanilmagan, lekin bu eng arzon va samarali yashil strategiyalardan biridir.

Siswanto va boshqa tadqiqotchilar yashil strategiyalarni joriy etgan farmatsevtika korxonalari yashil innovatsiya va ijtimoiy innovatsiyani uyg'unlashtirganda barqaror raqobat ustunligiga erishishi mumkinligini



ta'kidlaydi [8]. Ularning fikricha, ekologik yondashuv korxonaning bozor talablariga moslashish qobiliyatini oshiradi. Bu yondashuv O'zbekiston farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida ham dolzarbdir.

Yashil innovatsiyalar xarajatlarni kamaytirishi va iste'molchi ishonchini oshirishi orqali raqobat ustunligi yaratadi. Yashil ta'minot zanjiri kompaniyaga:

- xarajatlarni kamaytirish,
- ekologik mas'uliyatni kuchaytirish,
- bozorda raqobatdosh imij yaratish,
- mijozlar ishonchini oshirish imkonini beradi.

Zin ta'kidlaganidek, yashil ta'minot zanjiri strategiyasini joriy etgan korxonalar nafaqat bozorda narx bo'yicha raqobatbardosh bo'ladi, balki yetkazib berish jarayonlarida tezkorlikka erishadi hamda ekologik mas'uliyatni kuchaytiradi [10].

O'zbekiston sharoitida ta'minot zanjiri tizimi zaif bo'lib turgani sir emas. Shu nuqtai nazardan, ekologik tamoyillarga asoslangan logistika yondashuvi mavjud muammolarni bartaraf etish va tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Purwanti, Abadi va Suyanto esa yashil marketingni korxonalarni tezkor moslashuvchanlikka undovchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, ekologik tamoyillarga asoslangan marketing amaliyoti kompaniyalarga bozor sharoitining o'zgarishiga boshqalarga nisbatan tezroq javob berish imkonini yaratadi [11]. Putri va Riyanto (2023) yashil marketingning korxonaning ekologik raqobat ustunligi va marketing natijalariga bevosita ta'sirini ilmiy asosda ko'rsatib beradi [12]. Pacevičiūtė va Razbadauskaitė-Venskė (2023) esa yashil marketingni an'anaviy marketing tamoyillariga asoslangan holda, lekin ekologik me'yorlar bilan boyitilgan konsepsiya sifatida tasniflaydi [13].

Umuman olganda, ilmiy tadqiqotlar yashil marketingning barqaror raqobat ustunligi yaratish, brend imidjini mustahkamlash va bozor talablariga samarali moslashishga xizmat qiladigan muhim strategik funksiyani bajarishini tasdiqlaydi. Yashil strategiyalarni joriy qilgan ishlab chiqaruvchi korxonalar ekologik menejment tizimi orqali barqaror raqobat ustunligiga ega bo'ladi. Ular yashil strategiya — korxona brend qiymatini oshiruvchi asosiy omil ekanini qayd etadi [14].

O'zbekistonda ekologik menejment tizimini joriy etish ko'plab sohalarda raqobatni kuchaytiradi. Yashil innovatsiya korxonaning xarajatlarini kamaytirib, mahsulotning bozorga chiqish tezligini oshirishi orqali raqobat ustunligi yaratadi [15]. Yashil strategiya asosan ta'minot zanjirida qo'llanganda korxona xarajatlarini keskin kamaytiradi va natijada narx bo'yicha raqobat ustunligi yaratadi [16].

Yashil logistika korxonalar uchun nafaqat ekologik mas'uliyat ifodasi, balki eng samarali raqobat vositalaridan biridir. Resurslarni tejash, energiya sarfini kamaytirish va tashish jarayonlarini optimallashtirish orqali yashil logistika raqobatni kuchaytiruvchi kam xarajatli strategik yechim sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy manbalar marketingda raqamli texnologiyalar rolining ortayotganini ko'rsatadi. Masalan, Sharopova raqamli vositalar strategik marketing qarorlarini aniqroq qabul qilishga yordam berishini, ammo texnologik va iqtisodiy cheklavlar bu jarayonni sekinlashtirishini ta'kidlaydi. Bu jihatlar yashil marketingni joriy etishda ham muhim ahamiyatga ega [17].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqot raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda yashil marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, izlanishlarda miqdoriy (quantitative) va sifatli yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot asosiy ma'lumotlarini yig'ish uchun strukturalashtirilgan so'rovnoma shakllantirildi va O'zbekistonning turli hududlarida faoliyat yurituvchi iste'molchilar hamda korxonalar vakillari o'rtasida tarqatildi. So'rovnoma anonim shaklda o'tkazilib, uni to'ldirishda ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda qatnashdi.

So'rovnomada yashil marketingga bo'lgan munosabat, ekologik mahsulotlar haqidagi xabardorlik, yashil qadoqlashga bo'lgan talab, yashil strategiyaning narx, sifat va brend imijiga ta'siri kabi savollar o'rin oldi. Savollar Likert shkalasida (1 — "Mutlaqo qo'shilmayman", 5 — "To'liq qo'shilaman") baholandi, bu esa respondentlarning fikrlarini miqdoriy tahlil qilish imkonini berdi. Ma'lumotni tahlil qilishda deskriptiv statistika va nazariy tahlil qo'llanildi.

Tadqiqotda nazariy manbalar so'nggi yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalardan olindi, jumladan barqaror strategiyalar, raqobatbardosh afzallik va yashil marketing nazariyalari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekistonning turli hududlarida istiqomat qiluvchi 200 respondent so'rovnomada ishtirok etdi. Natijalar anketada ishtirok etgan 200 respondentning ma'lumotlariga asoslanadi. So'rovnomaning yosh bo'yicha guruhlangan natijalari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Yosh guruhlari bo'yicha taqsimoti

So'rovnoma da ishtirok etgan respondentlar yosh guruhlari taqsimoti — qatnashganlarning aksariyatini 18–25 yosh oralig'idagi iste'molchilar tashkil etadi (taxm. 62%), 26–35 yoshdagi respondentlar – 18 foizni, 36–45 yosh – 12 foiz, 46–60 yosh – 8 foizni tashkil etdi. Bu natija yosh iste'molchilarning ekologik mahsulotlarga nisbatan faolligi yuqoriligini ko'rsatadi.

Jins taqsimoti: respondentlarning ~64 foizi ayollar, ~36 foizi erkaklardan iborat. Bu esa ekologik xarid qilish xatti-harakatlarida ayollar faolligi yuqori ekanligini bildiradi – bu trend ilmiy adabiyotlarda ham tasdiqlanadi (masalan, ayollar ekologik ong darajasi bo'yicha erkaklardan yuqori bo'lishi ko'rsatib o'tilgan).

1. Yashil marketing bo'yicha xabardorlik. "Yashil marketing haqida eshitganmisiz?" savoliga: 49 foiz – "Ha, eshitganman", 40 foiz – "Yo'q, eshitmaganman", 11 foiz – "To'liq bilimga egaman" deb javob berdi. Bu shuni ko'rsatadiki, aholining deyarli yarmi ekologik marketing haqida yetarli darajada ma'lumotga ega emas, bu esa kompaniyalar uchun axborot kampaniyalarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

2. Eko-mahsulotlar iste'moli bo'yicha xatti-harakatlar. "Eko-mahsulot xarid qilasizmi?" savoliga: 60% — muntazam xarid qiladi, 31% — juda kam, 9% — hech qachon xarid qilmaydi. Yuqori talab iste'molchilar ekologik xavfsizlikka sezgir ekanini ko'rsatadi.

3. Brend ekologik imiji va xarid qarori o'rtasidagi bog'liqlik. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 65 foiz iste'molchilar brendning ekologik imijiga e'tibor beradi. Aksariyat respondentlar ekologik sertifikatlar va "eko" belgilarining mavjudligini xarid jarayonida tekshiradi. Ko'pchilik uchun ekologik imij ishonch omili sifatida qaraladi. Bu esa yashil marketing strategiyalarining iste'molchi ongida real ta'sir kuchiga ega ekanini isbotlaydi.

"Xarid qilayotgan brend tabiatni muhofaza qilish bo'yicha aksiyalar (masalan, daraxt ekish, chiqindini kamaytirish bo'yicha eko loyihalar) olib borsa, ularning mahsulotlarini ko'proq xarid qilarmidingiz?" degan savolga 70 foiz — "Ha, albatta" deb javob berdi. Ya'ni 70 foiz xaridor eko loyihalarda faol ishtirok etuvchi brendlardan mahsulotlarni ko'proq sotib olishga tayyor.

Ekologik qadoqlash uchun yuqoriroq narx to'lashga tayyor iste'molchilar 70 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Ekologik qadoqlashga munosabat va narx to'lashga tayyorlik.



Respondentlarning 28 foizi — “Balki”, 70 foizi — “Ha, tayyorman”, 2 foizi esa — “Yo‘q” deb javob berdi. Shu orqali iste‘molchilar qandaydir qo‘shimcha qiymat yaratilsa (sertifikatlangan, haqiqiy ekologik mahsulot bo‘lsa), ekologik qadoqlangan mahsulot uchun biroz yuqori narx to‘lashga tayyor ekanliklari aniqlandi. 70 foiz inson yuqoriroq narx to‘lashga tayyor. Bu kompaniyalarga “green premium price” strategiyasini joriy qilish imkonini beradi.

Shuningdek, “Doimiy xarid qiladigan mahsulotingiz o‘rniga eko qadoqlangan, eko mahsulot sotib oloremizmi?” savoliga 55 foiz — “Ha, albatta” deb javob bergan. Bundan ko‘rinib turibdiki, eko qadoqqa ega va ekologik mahsulotlar iste‘molchilar uchun odatiy tovarlarga nisbatan ustun va raqobatbardosh hisoblanadi. 10 foiz respondent esa — “Yo‘q, xarid qilmagan bo‘lardim” deb javob bergan.

Brend ekologik imiji va xarid qarori o‘rtasidagi bog‘liqlik shuni ko‘rsatdiki, 65 foiz iste‘molchilar brendning ekologik imijiga e‘tibor beradi. Aksariyat respondentlar ekologik sertifikatlar va “eko” belgilarining mavjudligini xarid jarayonida tekshiradi. Ko‘pchilik uchun ekologik imij ishonch omili sifatida qaraladi. Bu esa yashil marketing strategiyalarining iste‘molchi ongida real ta‘sir kuchiga ega ekanini isbotlaydi.

“Xarid qilayotgan brend tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha aksiyalar (masalan, daraxt ekish, chiqindini kamaytirish bo‘yicha eko loyihalar) olib borsa, mahsulotlarini ko‘proq xarid qilarmidingiz?” degan savolga 70 foiz — “Ha, albatta” deb javob bergan. Ya‘ni 70 foiz xaridor ekologik loyihalarda faol ishtirok etuvchi brendlardan mahsulotlarni ko‘proq sotib olishga tayyor.

Respondentlarning 61 foizida tabiiy oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj yuqori, 32 foizida esa gigiyena vositalariga talab yuqoriroq. Umuman olganda, iste‘molchilarning 61 foizi oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy moddalar va GMO‘larsiz bo‘lishini istaydi. Tabiiy oziq-ovqat mahsulotlariga talab yuqori bo‘lib, ularning ehtiyojlari to‘liq qondirilmayotgani kuzatiladi.

Asosiy trendlar (umumiy xulosa). Olingan natijalarga asoslanib, quyidagi asosiy trendlar aniqlandi: yoshlar ekologik mahsulotlar iste‘molida eng faol segment bo‘lib, 18–25 yoshli iste‘molchilar bozorning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi; ayollar ekologik xaridlarga ko‘proq moyil. Bu demografik segmentni yashil marketingda asosiy target sifatida belgilash mumkin; yashil marketing haqida xabardorlik o‘rtacha, biroq qiziqish yuqori; eko-mahsulotlarga talab yuqori, ammo narx sezgirligi ham mavjud va narx biroz baland bo‘lsa ham, iste‘molchilar sifat va ekologik afzalliklarni qadrlaydi; Brendning ekologik imiji iste‘mol qaroriga bevosita ta‘sir qiladi va bu kompaniyalardan real ekologik tashabbuslarni oshirishni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi iste‘molchilarning ekologik ong darajasi sezilarli darajada o‘sib borayotganini ko‘rsatdi. Yoshlar segmenti (18–25) asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, ular global trendlardan ortda qolmayapti. Ayollarning ekologik xaridda yuqoriligi ham marketing strategiyalarida genderga asoslangan segmentlashtirish zarurligini bildiradi. Xabardorlik darajasi o‘rtacha bo‘lishiga qaramay, real xarid xatti-harakatlarining yuqoriligi shuni ko‘rsatadiki, iste‘molchilar ekologik mahsulotlarni qisman bilgan holda ham tanlaydi. Bu esa mahsulotning tabiiy tarkibi, xavfsizligi va sifatiga bo‘lgan ishonch yuqori ekanini bildiradi. Yashil qadoqlash bo‘yicha natijalar O‘zbekiston bozorida “green premium price” modeli ishlashi mumkinligini, ammo narx sezgirligi hali ham mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, brendning ekologik imiji iste‘mol qaroriga kuchli ta‘sir qilishi aniqlangan ekologik sertifikatlar, ekologik hisobotlar va ochiq kommunikatsiyaning kompaniyalar uchun ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Ekologik mahsulotlar, eko qadoqlangan mahsulotlar, yashil distributsiya O‘zbekiston bozorida talabga ega. Yosh segment va ayollar ekologik iste‘molchilar sifatida eng faol guruhdir.
- Brendning ekologik imiji iste‘mol qaroriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu kompaniyalardan ekologik mas‘uliyatni oshirishni talab qiladi.
- “Green premium” bozorida istiqbol mavjud. Respondentlarning yarmi ekologik qadoqlangan mahsulot uchun yuqori narx to‘lashga tayyor.
- Raqobatbardoshlik uchun yashil marketing strategiyalari shart. Yashil marketing strategiyasi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda muhim vosita hisoblanadi. Tovar strategiyasini ekologik elementlar bilan boyitish korxonalarga bozor ustunligi beradi.

Tavsiyalar: Korxonalar yashil strategiyalarni joriy qilishda investitsiya qilishlari, sertifikatlash va brend kommunikatsiyasini kuchaytirishlari, ijtimoiy-madaniy kampaniyalar orqali bog‘lanishlari kerak. Turli aksiyalar, eko chellenjlar, yashil reklamalar, yashil distributsiya xizmatlarini joriy qilishlari lozim. Hozirgi muammoli iqlim sharoitida bunday strategiyalardan keng ko‘lamda foydalanish barcha kichik va o‘rta biznesga, YATTlarga, raqobatda ustunlik qilishda katta hissa qo‘shadi. Barcha mahsulot va tovarlar qayta ishlanadigan materiallar bilan qadoqlanishi ham ekologiya uchun, ham ishlab chiqaruvchi uchun foydalidir. Bundan tashqari, yashil reklamalarni yaratish va undan oqilona foydalanish har bir sotuvchi uchun sotuv hajmini oshirishga, talab uyg‘otishga yordam beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mukonza C., & Swarts, I. (2020). The influence of green marketing strategies on business performance and corporate image in the retail sector. *Business Strategy and the Environment*, 29(3), 838–845. <https://doi.org/10.1002/bse.2401>
2. Eren-Erdogmus İ, Lak H S, & Çiçek M. (2016). Attractive or credible celebrities: Who endorses green products better? *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 235, 587–594. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.11.085> Avesis+1
3. Kim W. H., Malek K, & Roberts K R. (2019). The effectiveness of green advertising in the convention industry: An application of a dual coding approach and the norm activation model. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 39, 185–192. [KW Publications+1](https://doi.org/10.1016/j.jhtm.2019.05.001)
4. Kao T. F., & Du, Y. Z. (2020). A study on the influence of green advertising design and environmental emotion on advertising effect. *Journal of Cleaner Production*, 242, 118294. [Allied Business Academies+1](https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.118294)
5. Auliandri T. A., Thoyib A, Rohman F, & Rofiq A. (2018). Does green packaging matter as a business strategy? Exploring young consumers' consumption in an emerging market. *Problems and Perspectives in Management*, 16(2), 376–384. [https://doi.org/10.21511/ppm.16\(2\).2018.34](https://doi.org/10.21511/ppm.16(2).2018.34)
6. Zailani S., Govindan, K Iranmanesh, M & Shaharudin, M R. (2015). Green innovation adoption in automotive supply chain: the Malaysian case. *Journal of Cleaner Production*, 108, 1115–1122. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2015.06.039>
7. Maziriri E. T., & Chinomona, R. (2020). Green packaging and green advertising as precursors of competitive advantage. *Cogent Business & Management*, 7(1), 1719586.
8. Siswanto B. N, Adriant I, Sari R. P., & Rahayu A. (2025). Green strategy for gaining competitive advantage in pharmacy: Exploring the role of green and social innovation. *Asian Management and Business Review*, 5(1), 60–73.
9. Dahlstrom R. (2021). Green supply chain management and sustainable performance. *Journal of Macromarketing*, 41(2), 232–245
10. Qin Z. (2019). A literature review of the impact of green supply chain management on firm performance. *Journal of Service Science and Management*, 12(7), Article 97055. <http://dx.doi.org/10.4236/jssm.2019.127059>
11. Purwanti I., Abadi M. D., & Suyanto U. (2023). Green marketing: strategy for gaining sustainable competitive advantage in Industry 4.0. *Manajemen Bisnis*, 9(2). <https://doi.org/10.22219/jmb.v9i2.10039> [ejournal.umm.ac.id \(https://ejournal.umm.ac.id/index.php/jmb/article/view/10039?utm_source=chatgpt.com\)](https://ejournal.umm.ac.id/index.php/jmb/article/view/10039?utm_source=chatgpt.com)
12. Putri V P, & Riyanto D W U. (2023). Green innovation and green competitive advantage mediate the influence of green marketing orientation on green marketing performance in SME Indonesia. *International Journal of Economics, Business and Accounting Research (IJEBAR)*, 7(4), 1574-1585. <https://doi.org/10.29040/ijebar.v7i4>.
13. Pacevičiūtė A., & Razbadauskaitė-Venskė, I. (2023). The role of green marketing in creating a sustainable competitive advantage. *Regional Formation and Development Studies*, 40(2), 89-98. <https://doi.org/10.15181/rfds.v40i2.2533>
14. Ivanova T., & Petrova S. (2020). Ekologicheskiy menedzhment i zelenaya strategiya kak istochnik konkurentnogo preimushchestva. *Marketing i Menedzhment Innovatsiy*, 3(1), 45–56.
15. Pankov A., Morozov D., & Lebede K. (2021). Zelenye innovatsii v promyshlennosti: faktor povysheniya konkurentosposobnosti. *Ekonomika i Biznes*, 12(2), 88–99.
16. Romanenko P. (2023). Zelenaya logistika i snizheniye zatrat v tsepi postavok. *Logistika i Menedzhment*, 14(1), 33–42.
17. Sharopova, N. (2025). Trends in the use of artificial intelligence and digital tools in marketing research in the small business sector of Uzbekistan: Problems and solutions. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(1), 51–60. <https://doi.org/10.51699/cajtmf.v6i1.823>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>